

MIRZO ULUG'BEK HAYOTI VA ILMIY-MA'RIFIY MEROSINI
O'RGANISH.

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАУЧНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО
НАСЛЕДИЯ МИРЗО УЛУГБЕКА.

STUDY OF THE LIFE AND SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL
HERITAGE OF MIRZO ULUGBEK.

Muallif:

Shamshod Nosirjonovich G'ofurov.

TDTU. 146-22 guruh- Iqtisodiyot.

3-bosqich talabasi. shamshodg954@gmail.com.

+99891-9489848.

Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish.

Изучение жизни и научно-просветительского наследия Мирзо Улугбека.

Study of the life and scientific and educational heritage of Mirzo Ulugbek.

Annotatsiya: maqolada davlat arbobi, buyuk olim va sarkarda Mirzo Ulug'bekning hayot yo'li, uning Movarounnahr davlati va dunyo madaniyati hamda siyosati oldidagi yuksak xizmatlari va qo'shgan ulkan hissasi muhokama qilingan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bekning astronomiya sohasidagi ilmiy izlanishlari va ularning bugungi kundagi ahamiyatiga doir fikr va mulohazalar keltirilgan..

Аннотация: в статье рассматривается жизненный путь государственного деятеля, крупного учёного и полководца Мирзо Улугбека, его большие заслуги и большой вклад в государство Моваруннахр и мировую культуру и политику. Также представлены научные исследования Мирзо Улугбека в области астрономии и их значение сегодня.

Abstract: the article discusses the life path of the statesman, great scientist and general Mirzo Ulugbek, his great services and great contribution to the Movarounnahr state and world culture and politics. Mirzo Ulug'bek's scientific researches in the field of astronomy and their importance today are also presented.

Kalit so'zlar: kuchli siyosatchi, ilmiy meros, Ziji Ko'ragoniy, Ma'mun akademiyasi, rasadxona, astronomiya, usturlob, munajjimlar, Shohrux, Ali Qushchi.

Ключевые слова: сильный политик, научное наследие, Зиджи Корагоний, Академия Мамуна, обсерватория, астрономия, астролог, астрологи, Шахрух, Али Кушчи.

Key words: strong politician, scientific heritage, Ziji Koragoniy, Ma'mun Academy, observatory, astronomy, astrologer, astrologers, Shahrukh, Ali Kushchi.

Asosiy qism

Mirzo Ulug'bek – Amir Temurning nabirasi, buyuk o'zbek astronomi, matematigi va davlat arbobi.

Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Qo'rag'oniy – 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida, Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzo oilasida dunyoga kelgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1394-yilda Amir Temur Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qiladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha, Amir Temurga nabirasi tug'ilgani haqida xabar keltiriladi va munajjimlar uning hukmdor va olim bo'lishini bashorat qiladi. Temur ushbu xushxabar tufayli Mordin qal'asi qamalini to'xtatadi va uning xalqiga yuklangan tovonni bekor qiladi. Yangi tug'ilgan nabiraga Muhammad Tarag'ay ismi beriladi.



Ulug'bek 1447-yilda otasining vafotidan xabar topgach Balxga jo'naydi. Bu yerda u marhum akasi Boysung'urning o'g'li Alovuddavlaning Hirotida Temuriylar saltanati hukmronligini da'vo qilganidan xabar topadi. Ulug'bek Alouddavlaga qarshi yurish qiladi va Murg'obda bo'lib o'tgan jangda u bilan uchrashadi. O'z jiyani ustidan g'alaba qozonib, 1448-yilda Hirotga qarab yuradi. Biroq

Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo unga yordamga kelib birgalikda Ulug‘bekni mag‘lub etishadi.

Ulug‘bek Balxga chekinadi va u yerda to‘ng‘ich o‘g‘li Abdullatif Mirzo ison ko‘targanidan xabar topadi. Shahardagi notinchlik xabarini eshitib, Ulug‘bek hech qanday jang bo‘lmasdan Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi. Abdullatif tez orada Samarqandga yetib boradi va Ulug‘bek beixtiyor o‘g‘liga taslim bo‘ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat beradi. Biroq, manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni ham 1449-yilda qatl qildirdi.

Ulug‘bek davrida Samarqand ilm-fan o‘choqlardan biriga aylangan. U yerda 15-asrning birinchi yarmida Ulug‘bekning atrofida G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan katta ilmiy maktab vujudga keladi. U vaqtlar Samarqandda O‘rta Osiyo haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abru, taniqli shifokor Mavlono Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiylar va boshqalar yashagan. Ular o‘z davrining eng ilg‘or fikrli va ilmiy kishilari bo‘lgan.

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma‘lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi Guragoniy” deb ham ataladi. “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asaridir.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan. Jumladan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida uning she‘rlaridan namunalar keltirib o‘tgan.

Mirzo Ulug‘bekning vafotidan so‘ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadi. Olimlar o‘zlari borgan yerlarda Samarqand olimlarining yutuqlari va “Zij”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473-yil Istanbulga borib, rasadxona quradi. Shunday qilib Ulug‘bekning

ushbu yirik asari Turkiyada tarqaladi va u orqali Yevropa mamlakatlariga yetib boradi. Masalan, 1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602—1652) keladi. Qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek "Zij"ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648-yili avval "Zij"dagi 98 yulduzning jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs "Zij"dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u "Zij"ning birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652-yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda "Zij" asarining yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arab tilida nusxasi mavjud. U musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan.

Shunday bo'lishiga qaramay, "Zij" asari umuman olganda to'liq ravishda o'rganilmagan va biror zamonaviy tilga to'liq tarjima qilinmagan. 1994-yili Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi munosabati bilan asar ilk bor rus tilidagi to'liq tarjimasini nashr etiladi. Shu yili Ulug'bekning yana bir asari "To'rt ulus tarixi" ham Toshkentda o'zbek tilida nashr etiladi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lozmalar fondida Mirzo Ulug'bekning samarqandlik xattot Azizullo tomonidan nasx xatida taxminan 1439-yilda, Ulug'bek 45 yoshda bo'lganida ko'chirilgan "Ziji Ko'ragoniy"si saqlanmoqda. Qo'lyozma sahifalarida Ulug'bekning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma'lumot beradi.

1417-1420 yillar Ulug'bek Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug'bek islom olamining ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Qolgan ikki madrasa G'ijduvon va Buxoroda qurilgan. Ulug'bek tomonidan qurilgna madrasalar universitet vazifasini bajargan. Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqida "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" yozuvi saqlanib qolgan.

1428-1429-yillarda Ulug‘bek farmoyishi bilan Cho‘ponota tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida yozilishicha, balandligi 30,4 metrdan iborat 3 qavatli bino qurilgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblarni bo‘lgan. Boburning yozishicha, rasadxonaning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Uning ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlikda o‘rganilgan. Shuningdek, ma’lumotlarga ko‘ra rasadxonada kutubxona bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari “Zij Ko‘ragoniy” rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog‘liq.

Riga shahridagi

Mirzo Ulug‘bek haykali

1966-yilda O‘zbekistonda “Ulug‘bek yulduzi” filmi suratga olindi. Yozuvchi Maqsud Shayxzoda 1964-yilda “Mirzo Ulug‘bek” pyesasini yozgan. Yozuvchi Odil Yoqubov



“Ulug‘bek xazinasi” (1970-1973) romanini yaratgan. Yozuvchi va shoir Xurshid Davron “Sohibqironning nabirasi” qissasi va “Algul yulduzi yoki Ulug‘bekning so‘nggi kuni” pyesasini yozgan. 1970 yillarda O‘zbekistonda Odil Yoqubovning romani asosida “Ulug‘bek xazinasi” ko‘p qismli videofilm suratga olingan. 1994 yil Mirzo Ulug‘bek yili deb e‘lon qilingan. O‘zbekiston Milliy universiteti Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va O‘zbekistonning boshqa shaharlaridagi xiyobon va ko‘chalarga Mirzo Ulug‘bek nomi berilgan. Qozog‘istonning Olmaota shahrida Mirzo Ulug‘bek nomli ko‘cha bor. Toshkent metropolitenidagi bekatlardan biri Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalgan. Poytaxt tumanlaridan biri Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalgan. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Samarqandda Mirzo Ulug‘bek

muzeyi tashkil etilgan. Toshkent va Samarqandda Mirzo Ulug‘bek sharafiga haykallar o‘rnatilgan. Riga shahridagi Kronvalda bog‘ida, O‘zbekiston elchixonasidan uzoq bo‘lmagan joyda Mirzo Ulug‘bek haykali o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutiga Ulug‘bek nomi berilgan. Oyning ko‘rinadigan tomonida, limbning shimoli-g‘arbiy chekkasi yaqinida joylashgan kraterga, shuningdek, 1977-yilda kashf etilgan asosiy kamar asteroidiga Ulug‘bek nomi berilgan.

Xususan, davlatimiz oldidagi xizmatlari, yurtimiz ilm-fan sohasidagi taqqoslab bo‘lmas yutuqlarini nafaqat olimlarimizni, balki butun millatimizning ko‘z o‘ngida namoyon qildirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2024-yilning o‘zida Mirzo Ulug‘bekning 630-yilligiga bag‘ishlab qator tadbirlar, jamoaviy yig‘ilishlar va seminarlar o‘tkazish mas‘ul davlat organlari va xodimlariga yuklatildi. Bularga misol sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishni lozim deb topdim:

- ✓ Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq obektlar, Mirzo Ulug‘bek sharafiga barpo etilgan yodgorlik majmualari mukammal ta‘mirlanadi va ularning hududi obodonlashtirildi;
- ✓ alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo‘lyozma va boshqa madaniy boyliklar restavratsiya qilinadi, ishonchli saqlash uchun zarur sharoit yaratildi;
- ✓ Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligiga bag‘ishlab «Jahon tamadduni rivojida Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma‘rifiy merosining o‘rni va ahamiyati» mavzusida ilmiy-adabiy tadbirlar o‘tkazildi;
- ✓ Samarqand shahrida 10-11 oktyabr kunlari «Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi» mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi;
- ✓ Mirzo Ulug‘bekning «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» asarini o‘zbek, rus va ingliz tillarida, «To‘rt ulus tarixi» nomli tarixiy asarining o‘zbek tiliga tarjimasi qayta nashr qilinadi;
- ✓ Ulug‘bek haqida yaratilgan «Osmon toqiga qo‘yilgan narvon» nomli hujjatli film taqdimoti o‘tkazildi.

Xulosa

Maqolamning xulosasi sifatida shuni ta'kidlashim joizki, Mirzo Ulug'bek nafaqat o'zi mansub millatning, ayni paytda butun insoniyatning ham faxridir. U xalqni, saltanat sohiblarini ochiq yuzlilik, samimiyat, mehr-shafqat bilan o'ziga rom etdi, adolat bilan ish yuritdi. Islom diniga bobosi kabi e'tiborla munosabatda bo'ldi.

Ulug'bek o'z asarlari, ma'naviy-axloqiy ta'limoti orqali barcha insonlarni go'zal xulqli, mexr-oqibatli bo'lishga va yaxshilikka chaqirdi. Go'zal xulqli bo'lish, faqat yaxshilikni o'ylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgulik deya yashash, o'zida borini o'zgalar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, yoru do'stlar sharafiga, nomusini himoya qilish, zohiran va botinan pok yurish, tirikchilikni halol topilgan non bilan kechirish har qanday odamning ma'naviy qiyofasini bezaydi, deydi.

Ulug'bekday farzandi bo'lgan xalq har qancha faxrlansa arziydi. O'z tomirlarimizda Ulug'bek qoni oqayotganligidan, ruhimizda ul muborak zotning ruhi barhayotligidan baxtiyormiz. "Mirzo Ulug'bek o'z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O'sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o'ylab yashadi, o'z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma'rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Har qanday millat ham Ulug'bekday farzandni tarbiya etgani uchun g'ururlanishi tabiiy holdir. Chunki bunday insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi va jahonning e'tiborini qozonadi".

Shunday qilib, Mirzo Ulug'bekning milliy va umumbashariy ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik ta'limotlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda

ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi PQ- "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to'g'risida"-12.09.2024.
2. O'rta ta'lim maktabining "O'zbekiston tarixi" darsliklari-2023.
3. "Ma'naviyat yulduzlari"- madaniy-ma'rifiy jurnal-2022.
4. ziyouz.uz